

## AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA SOLIQLARNI REJALASHTIRISH TIZIMINING TARKIBI

Shernayev Akbar Aqmirzayevich

Oriental universiteti “Moliya va menejment”

kafedrasi i.f.n., dotsent.

[shernaev.akbar@mail.ru](mailto:shernaev.akbar@mail.ru)

### MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-iyun 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-iyun 2024-yil

Jurnal soni: 11

Maqola raqami: 38

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v11i11.1010>

### KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

Aksiyadorlik jamiyatlar, korporativ boshqaruv, moliya bozori, global iqtisodiyot.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlar soliqlarini rejalashtirish metodologiyasini taddiq qilishning nazariy-uslubiy asosini aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv va korporativ soli menejmenti, soliqlarni rejalashtirishni tashkil etish va boshqarishning makroiqtisodiy va korporativ ko'lami vazifalari, korxonada soliqlarni strategik va taktik rejalashtirish metodologiyasini takomillashtirish jihatlarini o'rganish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.

### KIRISH

Jahon iqtisodiyotida sodir bo'layotgan jarayonlar hamda mamlakatni istiqbolda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish borasida aytiganidek, "Jahon bozorlarida raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi sharoitda iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini tubdan oshirish, eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv afzalliklari asosida ular moliyasini samarali boshqarish ustuvor ahamiyat kasb etadi" <sup>1</sup>. Bu sohada "iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko'lamini kengaytirish, eng avvalo, import o'rmini bosuvchi va eksport salohiyatini oshirishni ta'minlovchi ishlab chiqarishni o'stirishga erishish, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv asosida jadal rivojlantirish hisobiga ular moliyaviy va soliq salohiyatini oshirish" <sup>2</sup> bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Bunda "aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, foydalilanilmayotgan resurslar va moliyaviy imkoniyatlardan yuqori darajada va samarali foydalinish, soliq siyosati sohasida shakllanib qolgan tizimli muammollarni bartaraf etish hamda hozirgi kundagi eng muhim masalalardan biri – korxonalar miqyosida soliq menejmenti samaradorligini oshirish imkonini beradi". Bu sohada soliq tizimini to'liq raqamlashtirish, soddalashtirish va barcha tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, rasmiy sektor nolegal faoliyatdan afzal va manfaatli bo'lishi uchun barcha zarur sharoitlarni ta'minlash <sup>3</sup> bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan.

Rivojlangan va izchil taraqqiy etayotgan davlatlar (Yaponiya, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Xitoy va boshqalar) tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, korxona raqobatbardoshligi, barqaror rivojlanishi soliqlarni rejalashtirishning samarali vositalarini qo'llashga to'laligicha bog'iqlidir. Bunda tashqi muhitning ta'siri va raqobat korxonalarni o'zlarining soliq salohiyatidan yanada samarali foydalanimishga undamoqda. Shu sababli aksiyadorlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirish metodologiyasini o'rganish hozirgi zamon fanining yangi va murakkab taddiq predmeti sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, aksiyadorlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirish jarayonini taddiq qilishning nazariy-metodologik bazasi hali yetarli darajada tizimlashtirilmagan va u asosan korporativ moliya, yuridik shaxslarni soliqqa tortish, fiskal siyosat va soliq ma'muriyatiligi konsepsiylariga

asoslanib qolmoqda. Bu aksiyadorlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirish bo'yicha strategik qarash va dasturly chora-tadbirlar ishlab chiqish nuqtai-nazaridan ushbu masalaning metodologik va amaliy jihatlarini taddiq qilishning zarurligini ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirish masalalarining nazariy, metodologik va amaliy jihatlari maxsus, mustaqil tadqiqot ob'ekti sifatida yetarli darajada o'rganilmaganligi ilmiy maqola uchun tanlangan mavzuning dolzarbigagini va ilmiy-amaliy ahamiyatiga ega ekanligini belgilab beradi.

Mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirish metodologiyasini taddiq qilishning nazariy-uslubiy asosini aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv va korporativ soliq menejmenti, soliqlarni rejalashtirishni tashkil etish va boshqarishning makroiqtisodiy va korporativ ko'lami vazifalari, korxonada soliqlarni strategik va taktik rejalashtirish metodologiyasini takomillashtirish konsepsiylari tashkil etadi.

### ADABIYOTLAR SHARI

Soliqlarni rejalashtirish nazariyasi va amaliyotiga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili ko'rsatishicha, bu sohaga oid adabiyotlar soni ko'p bo'lishiga qaramay, mualliflarning "soliqlarni rejalashtirish" tushunchasiga bergan ta'riflari har doim ham soliqlarni rejalashtirish, soliqlarni mukammallashtirish va soliqlarni minimallashtirish tushunchalarini aniq farqlashga imkon bermaydi. Masalan, Malakeeva C mazkur tushunchalarini birday ko'radi va ularning mohiyatini soliq to'lovchilarning soliq to'lovlarini kamaytirish yuzasidan harakatlarini sifatida talqin etadi<sup>4</sup>.

S.Elmirzaev "Soliqlarni rejalashtirish – qonunchilik tomonidan taqdim etilgan yengilliklar va soliq majburiyatlarini qisqartirishning boshqa qonuniy usullaridan foydalangan holda soliq va ularga tenglashtirilgan to'lovlarini kamaytirish bo'yicha belgilanadigan moliyaviy rejalashtirish turidir" <sup>5</sup> deb ta'kidlaydi.

X.B.Zaripov fikricha, "soliqlarni rejalashtirish jarayonida asosiy tijorat va investitsion natijalarga erishish to'lanadigan soliqlar summasi darajasining asoslangan yoki optimal miqdori orqali ta'minlanmog'i lozim" <sup>6</sup>.

A.Zaynudinov "soliqlarni rejalashtirishni mikrodarajada umumiy rejalashtirish tizimining bir qismi sifatida, boshqaruv faoliyatining

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. 2017 йил шиддатли ислохотлар йили. Т.: "Ўзбекистон", 2018, - 76 б.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевининг "Ўзбекистон Республикасини янада рivojlantirishi bўйича харакатлар strategiya týrgisisida"ги 2017 йил 7 fevral, P.O-4947-sonli - Farmoni.

<sup>3</sup> "Ўзбекистон - 2030" strategiya týrgisi, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023 й., 06/23/214/0984-son) <https://lex.uz/docs/6600413>

<sup>4</sup> Малакеева С. Роль налогового планирования на предприятиях малого бизнеса // Предпринимательство. – 2017. № 6. – С. 114.

<sup>5</sup> Elmirzaev S.E. O'zbekiston Respublikasida korporativ soliq menejmentini rivojlanish istiqbollari. I.f.n. ilmiy dar.oilish uchun taqdim etilgan diss.avtoref. – T., 2012. – 9 b.

<sup>6</sup> Zaripov X.B. Экономическое значение налогов и налоговая политика Узбекистана. Электр. Ресурс. <https://cyberleninka.ru/article/n/ekonomicheskoe-znachenie-nalogov-i-nalogovaya-politika-uzbekistana>.

ko'rinishi sifatida, xo'jalik sub'ekti haraktlarini soliqqa tortish orqali tartibga solish usuli" sifatida talqin etadi. Soliqlarni rejalashtirish korxonani boshqarishning umumiy maqsadiga erishishni ta'minlaydi: tang vaziyatlarda - yashab qolish; normal vaziyatlarda – samaradorlikni oshirish, o'z moliyaviy resurslari hajmini oshirish va raqobatchilar oldida ustunliklarga ega bo'lish"<sup>7</sup>.

X.Djamalov ta'kidlashicha, "soliqlarni rejalashtirish moliyaviy resurslarni oshirishga, soliq bazasi tarkibi va miqdorini tartibga solish orqali korxonani moliyaviy sog'lomlashtirishga qaratilgan rejali faoliyatlar majmuidir"<sup>8</sup>.

Soliqlarni rejalashtirish moliyaviy resurslarni oshirishga, soliq bazasi tarkibi va miqdorini tartibga solishga, boshqaruv qarorlari samaradorligiga ta'sir etishga hamda amaldagi qonunchilik bo'yicha byudjet bilan hisob-kitoblarni o'z vaqtida ta'minlashga yo'naltirilgan rejali faoliyatlar yig'indisidir.

Soliqlarni rejalashtirishning ahamiyati soliqlarni maksimal darajada qisqartish uchun qonunchilik yo'l qo'ygan usul va vositalar, shu jumladan qonunchilikdagi bo'shilqlardan soliq to'lovchilar foydalanishi natijasida uning prezumpsiya huquqi tan olinishida aks etadi. Bundan tashqari soliqlarni rejalashtirish soliqlarni o'z vaqtida va to'liq to'lash bo'yicha chora-tadbirlarni oldindan belgilashda ham namoyon bo'ladi.

#### MAVZUGA OID MAVJUD MUAMMOLAR.

O'zbekiston Respublikasi rivojanish istiqbollarini hisobga olgan holda iqtisodiyot modernizatsiyasi va liberallashuvi sharoitidagi yangi boshqaruv siyosati doirasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning dolzarb vazifalarini hisobga olgan holda aksiyadorlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirishning nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish va korxona moliyinasini rejalashtirish imkoniyatidan samarali foydalanish mexanizmlari va chora-tadbirlarini ishlab chiqishning zamonaviy tendensiyalarini tizimli tarzda tadqiq etishda "iqtisodiyot ochiqligi va biznes muhiti" kabi hayotiy belgilovchi omillar mutanosibliklarini o'zaro muvofiqlashtirish hamda uyg'unlashtirish orqali uning takomillashgan mexanizmini ishlab chiqish asosiy masala qilib qo'yilishi zarur va bu jarayon quyidagilarga imkon beradi:

-O'zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirish nazariysi va uslubiyotiga yangicha yondoshish zarurligini belgilovchi omillar ilmiy tahlil qilish va ularni samarali boshqarish tadbirlarini ilmiy asoslash;

-aksiyadorlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirish funksiyalarini umumlashtirish, to'dirish va yagona kompleksga keltirish, soliqlarni rejalashtirish jarayonida rioya etishi lozim bo'lgan tamoyillarni aniqlash, korxonalar duch kelishi mumkin bo'lgan soliq risklarni tavsiflash;

-aksiyadorlik jamiyatlar soliq saloxiyatini oshirish va optimallashtirish tushunchalarining mazmuni aniqlashtirish va ular farqlarining mezonlari asoslab berish;

-aksiyadorlik jamiyatlarida soliqlarni optimallashtirish usullari, jumladan, korxonaning hisob, investitsiya, innovatsiya, baho va shartnoma siyosati mutanosibligi asosidagi harakatlarining yo'l xaritasini aniqlash va tavsiflash, shu bilan birga aksiyadorlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirishning optimal sxemasini ishlab chiqish.

-aksiyadorlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirish korxona moliyasini boshqarish tizimining ajralmas qismidir.

Chunki, moliyaviy rejalashtirish xo'jalik sub'ektining ishlab chiqarish, investitsion va moliyaviy faoliyatida qaror qabul qilish

asoslarini ta'minlaydi. Moliyaviy rejalashtirishning korxonalar faoliyati uchun alohida dolzarbli shundaki, u keskin raqobat sharoitida uzluksz rivojanish yo'lini belgilab beradi.

Davlatning fiskal vazifalari ijrosini ta'minlash yoki ijtimoiy-iqtisodiy rivojanish moliyaviy asoslarining shakllanishiga ijobji ta'sir etishning muhim omillaridan biri – korporativ soliqlarni rejalashtirishdir, ya'ni korxonaningsoliqlar yuzasidan to'lov intizomiga rioya etilishi darajasi qanchalik yuqori bo'lsa yuqoridagi vazifalar ijrosi shunchalik to'liq ta'minlanadi va aksincha, soliqlar yuzasidan to'lov intizomiga rioya etilishi darajasi qanchalik past bo'lsa moliyaviy havfsizlik maqsadida fiskal vazifalar ijrosi shunchalik qiyinlashadi.

#### ILMIY ASOSLANGAN TAKLIF VA TAVSIYALAR.

Soliq amaliyotimizda korporativ soliqlarni rejalashtirish maqsadida korxona soliq intizomini mustahkamlashga oid hozirda mavjud bo'lgan muammolar yaqin istiqbolda hal qilinish lozim bo'lgan zarur tadbirlar tizimini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi va ularni hal etish, avvalo, soliq solish mexanizmini soddalashtirish hamda soliq ma'muriyatichilida zamonaviy usullarni qo'llash orqali soliq solish bazasini kengaytirish va soliqlar yig'iluvchanligini oshirishni ta'minlaydi.

Hozirgi zamон jahon soliq amaliyotida korporativ soliqlarni rejalashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar tarkibida aholi o'tasida soliq madaniyatining yuqori bo'lishiga qaratilgan bo'lib, soliq to'lovchilarini ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qilish tizimlarini kengaytirish, soliq to'lovchilarga maslahatlar berish va ular bilimi, savodxonligini oshirish uchun Call-markazlar faoliyatidan foydalanish muhim o'rinn tutmoqda.

Mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida korporativ soliqlarni rejalashtirish uchun soliq organlari faoliyatining asosiy vazifasi sifatida – soliq ma'muriyatichilida soliq to'lovchining talablarini qanoatlantirishga qaratilgan yondashuvni joriy etish, rivojlantrish va modernizatsiya qilish hisoblanadi. Soliq to'lovchilar tomonidan soliq qonunchilikiga rioya etilishi yuzasidan ular bilan hamkorlik qilishni yo'lg'a qo'yish, soliq to'lashdan bo'yin tovslash darajasining pasayishiga ta'sir etadi.

Soliqlarni undirishda soliq intizomiga rioya etilishi darajasini oshirish yo'llarini yoki soliq to'lovchilarining ixtiyorilik asosida to'langan soliqlari ulushini oshirishni o'zida jamlagan soliq amaliyotining yangi talablariga mos tarzda soliqqa tortish tamoyillarini takomillashtirish lozim, chunki soliq munosabatlari ierarxiyasida uning ishtiroychilari o'zar manfaatlari mutanosibligini ta'minlash soliq to'lovchilar xulqiga ta'sir ko'rsatuvchi soliq tizimi faoliyati tamoyillari orqali amalga oshiriladi. O'zar manfaatlari mutanosibligiga bazaviy tamoyillar hamda davlatning iqtisodiyotdagisi rolini, hozirgi zamон soliq bazalarining xususiyatlarini, soliqqa tortishning transaksiyon xarakatlarini inobtaga oluvchi qo'shimcha tamoyillarga rioya etilishi natijasida erishiladi. Soliqlarni to'lashning ixtiyoriligi darajasini oshirish maqsadida korxonalar soliq intizomini mustahkamlashning yangicha mazmunini asoslash uchun korporativ soliqlarni rejalashtirish amaliyotida soliq intizomini mustahkamlash tamoyilliari soliq tushumlarini proqnoz qilish samaradorligiga, soliq to'lovchilar tomonidan soliq to'lash majburiyati qoidalariiga og'ishmay rioya qilinishiga hamda soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga imkon beradi.

#### References:

1. Мирзиёев Ш.М. 2017 йил шиддатли ислоҳотлар йили. Т.: "Ўзбекистон", 2018, - 76 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти III.Мирзиёевинг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича харакатлар стратегияси тўғрисида"ти 2017 йил 7 февраль, ПФ-4947-сонли Фармони.
3. "Ўзбекистон - 2030" стратегияси тўғрисида, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон; 29.12.2023 й., 06/23/214/0984-сон) <https://lex.uz/docs/6600413>
4. Малакеева С. Роль налогового планирования на предприятиях малого бизнеса // Предпринимательство. – 2017. -№ 6. – С. 114.

7Зайнутдинов А. Налоговое планирование в предприятиях в условиях налоговой реформы в Республике Узбекистан. Электр. Ресурс. <http://vl-legal.uz/ru/publikatsii/21-publikatsii/obzor-i-analitika/326-nalogovoe-planirovanie-v-predpriyati-v-usloviyah-nalogovoj-reformy-v-respublike-uz>.

8Джамалов Х.Н. Диагностика финансового здоровья предприятий малого бизнеса//Journal of Economy and Business, vol. 1-1 (71), 2021, pp.99-105

5. Elmirzaev S.E. O'zbekiston Respublikasida korporativ soliq menejmentini rivojlantirish istiqbollari. I.f.n. ilmiy darolish uchun taqdim etilgan diss.avtoref. – T., 2012. – 9 b.
6. Зарипов Х.Б. Экономическое значение налогов и налоговая политика Узбекистана. Электр. Ресурс. <https://cyberleninka.ru/article/n/ekonomicheskoe-znachenie-nalogov-i-nalogovaya-politika-uzbekistana>.
7. Зайнутдинов А. Налоговое планирование в предприятиях в условиях налоговой реформы в Республике Узбекистан. Электр. Ресурс. <http://vl-legal.uz/ru/publikatsii/21-publikatsii/obzor-i-analitika/326-nalogovoe-planirovanie-v-predpriyatiu-v-usloviyakh-nalogovoj-reformy-v-respublike-uz>.
8. Джамалов Х.Н. Диагностика финансового здоровья предприятий малого бизнеса//Journal of Economy and Business, vol. 1-1 (71), 2021, pp.99-105
9. SHERNAEV A.A. ON THE ISSUE OF THE EFFICIENCY OF TAXATION OF JOINT STOCK COMPANIES // «EKONOMIKA I BIZNES: teoriya i praktika». Mejdunarodnyu yejemesyachnyu nauchnyu jurnal - №9-2 (67). Moskva, izd. OOO «Kapital», 2020. – s. 149-152.
10. Shernaev A.A. GENERAL METHODOLOGICAL BASES OF TAX PLANNING IN ENTERPRISES // International Journal of Economics, Commerce and Management United Kingdom ISSN 2348 0386 Vol. VIII, Issue 4, April 2020 Licensed under Creative Common Page 357
11. Shernaev A.A. Nalogovoe planirovanie v sisteme obespecheniya finansovoy bezopasnosti v akcionernykh obchestvakh // «Internauka»: nauchnyu jurnal - № 12(141). Chast 2. Moskva, izd. «Internauka», 2020. - s. 43-45
12. Shernaev, A. A. Principles and methods of organization of the internal tax control system in joint stock company. International Journal of Economics, Business and Management Studies-ISSN, 2347-4378.
13. Shernaev, A. A. (2020). Sovremenstvovanie nalogovogo planirovaniya v akcionernykh obchestvakh-kak mehanizm povysheniya effektivnosti finansovogo menedjmenta. Ekonomika i obchestvo, (4), 20-28.